

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti « Biologiya, ekologiya va dorivor o'simliklar» kafedrasi professori X.T. Boymurodovning Biotexnologiya fakulteti, 60710400 –Ekologiya va atrof muhit muhofazasi ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabalari uchun “Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish” fanidan “Tabiiy resurslardan foydalanishning ilmiy – nazariy asoslari” mavzusidagi ma'ruza darsiga

TAQRIZ

Hozirgi vaqtida yer yuzida atrof muhitni-muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holatni yaxshilash muhim masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Tabiiy resurslardan keng foydalanish natijasida Markaziy Osiyo mamlakatlari hududida bir qancha ekologik muammolar, suv resurslarining kamayishi va ifloslanishi, chiqindilarni boshqarish, iqlim o'zgarishlari va qishloq xo'jaligidagi ekologik muammolarni yuzaga kelishiga olib kelmoqda.

«Ta'lim to'g'risida» gi qonun talablaridan kelib chiqib, talabarni zamon talablariga mos ravishda o'qitishda keyingi yillarda o'z ijobjiy samarasini berayotgan yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish zamon talabi hisoblanadi.

Mazkur ma'ruzada XX asr boshlariga kelib, yer kurrasidagi suv havzalari, atmosfera havosi, tuproqlar, sanoat, transport, maishiy-kommunal, qishloq xo'jaligi chiqindilari va boshqa chiqindilar bilan ifloslanishi juda ham kuchayib ketdi. Bular o'z navbatida sayyoramiz biologik resurslarining holatiga va ayniqsa kishilar salomatligiga ziyon yetkazmoqda. Shu sababli jahon mamlakatlarida ham tabiiy muhitni toza saqlash, uni muhofaza qilish masalasi keng tus olmoqda.

Atrof-muhit regional ifloslanishdan global masshtabdagi ifloslanishga aylanib ketdi va geografik muhitda energetika balansining, ekologik sharoitning va moddalar almashinuvining buzilishi uchun xavf tug'ildi. O'tgan asrning 50-yillaridan boshlab fan - texnikaning jadal rivojlanishi insoniyatning tabiatga ta'sir miqyosi va darajasining keskin ortishiga olib keldi. Tabiiy resurslarning mislsiz o'zlashtirilishi, sanoat ishlab chiqarishining ortishi, transport vositalari sonining ko'payishi atrof - muhitning kuchli ifloslanishi muammosini keltirib chiqarishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Xulosa X.T. Boymurodov tomonidan tayyorlangan ushbu ma'ruza ishlanmasi amaliy va nazariy ahamiyatga ega bo'lib, Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi ta'lim yo'nalishi talabalar bilim va ko'nikmalarini boyitishda xizmat qiladi.

**Sh.Rashidov nomli Samarqand davlat universiteti
Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi ning imzosini
kafedrasi professori**

tasdiqlayman
Sharof Rashidov nomidagi
SamDU xodimlar bo'limi boshlliq'i

Z.I.Izzatullaev

